# Geologiya muzeyiga sayohat

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti "Gidromelioratsiya" fakulteti “Meliorativ gidrogeologiya” ta’lim yo’nalishi 112-gurux talabalari va guruh murabbiyi Jasur Hamroqulov rahbarligida 2021-yilning 12-fevral kunida talabalarning mustaqil ta'lim kunini maqsadli tashkil qilish bo'yicha tasdiqlangan grafik asosida “O’zbekiston Respublikasi geologiya” muzeyiga ekskursiya uyushtirildi. Talabalarga “O’zbekiston Respublikasi geologiya muzeyi bilan to’laroq tanishtirish maqsadida ekskursiya o’tkazildi. Ekskursiyani talabalarga muzey xodimi boshchiligida to’liq tanishtirib berildi.

 

Talabalar muzeyni 1988-yil tashkil topganligi, Shuningdek, muzey kolleksiyasida 75 yil mobaynida yig‘ilgan katta hajmdagi materiallar hamda muzeyga sovg‘a sifatida taniqli geologlar tomonidan taqdim etilgan shaxsiy kolleksiyalar, ekspozitsiyalar bilan tanishdilar. Muzeyda noyob ob’yektlar, yangi konlar bo‘yicha tekshirish, qimmatbaho metallar va yarqirama toshlar xom-ashyosi, jumladan, zargarlik buyumlariga ekspert xulosalarining berilishi va boshqalar tadqiqotlar amalga oshirilganligi haqida ma'lumotlarga ega bo'ldilar. Tashrif jarayonida talabalar muzey xodimlariga o’zlarini qiziqtirgan savollari bilan murojaat qilishdi, berilgan savollarga aniq javoblar olishdi.

**TIQXMMI matbuot xizmati**